INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATI VA RAHBARLARDA LIDERLIK QOBILIYATIGA BERILGAN AHAMIYATI

Abduraxmonova Robiya Adxamjon qizi

Xalqaro Nordik universiteti magistr talabasi

abdurahmonovarobiya1992@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsda liderlikni namoyon bo‘lishi bo‘yicha sharq allomalarining fikrlari va asarlarida yozib qoldirgan qimmatbaho bitiklar asosida ilmiy-nazariy muhokama qililingan.

Kalit so‘zlar: Lider, shaxs, mas’uliyat, yetakchi, Mahmud Qoshg‘ariy, Forobiy, Beruniy, mehnat jamoasidagi lider, shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirish.

KIRISH

Boshqaruv uslubiga an’anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g‘oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish liderlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Umuman olganda adabiyotda «lider» so‘zini «etakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko„p uchraydi. O‘ylashimizcha, «etakchi» atamasi «lider»ga xos bo‘lgan psixologik tavsifni to‘la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so‘zi guruhga munosabat sifatida, uning a’zolariga ta’sir o‘tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo‘lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo‘lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug‘iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo‘lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog‘liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o‘zining ilg‘orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o‘zbek tilida aynan shu ikki ibora – «peshqadam» va «etakchi» so‘zlari majmuasi lider mohiyatini to‘la ifodalashi mumkin.[7]

ADABIYOTLAR SHARHI

Sharqda qadimdan boshqaruv sohasiga e’tibor qaratib kelingan. Sababi, jamiyat va davlat boshqaruvi qadimdan sharqlik mutafakkirlarning e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan. Ko‘plab olimlar va ulamolar jamiyat va davlatni boshqarishda adolat va tenglik g‘oyalarini ilgari surishgan. Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasihat va o‘gitlar aytilgan asarlar ham ko‘plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asari ham kiradi. Alloma mazkur asarni 1076-1077 yillarda yozgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti shaxsni boshqarish sohasida katta ahamiyatga

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar. Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan[5]. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shahrini boshqaradigan hokim tabiatan:

1) sog‘-salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi;

2) tabiati nozik, farosatli;

3) xotirasi mustahkam;

4) zehni o‘tkir;

5) o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq;

6) bilim-ma’rifatga havasli;

7) taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladiga bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi;

8) haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan;

9) o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi;

10) mol dunyo ketidan quvmaydigan;

11) adolatparvar;

12) qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi.

Shunday tabiat va xislatlarni o‘zida mujassam qilgan inson albatta jamiyat ko‘nglidan joy topa oladi va xalq ham unga ergashadi. Forobiy boshqaruvdagi odamning mana shunday nozik tomonlarini asrlar oldin bayon etgan.[6]

NATIJALAR

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g‘oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu Rayhon Beruniy 362 yil 3-zulhijjada (milodiy 973 yil 4-sentabr) Xorazmning Qiyod (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birun so‘zi «tashqari» degan ma’noni anglatadi.

Beruniy fikricha, axloqiylik rahbar kishining eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilar bilan o‘zaro muloqot, ijtimoiy muhit-jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

U boshqaruv madaniyatiga doir xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Yomon illatlarga esa xasadgo‘ylik, baxillik, nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.

Beruniy saxovat (o‘zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo‘lish, halollik va haqgo‘ylik, o‘z mehnati bilan kun ko‘rish v.b.)ni insonning axloqiy kamolotini ko‘rsatuvchi xislatlar deb biladi.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlik, g‘azab va johillik boshqaruv jarayoni uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir ilgari surgan boshqaruvga doir hislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat o‘rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli xukmdor bo‘lishi kerak, deydi.

Beruniy ichki boshqaruv masalalari, shaxs ehtiyojlari, rahbar imidji masalalariga ham katta e’tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini ham uyg‘un, go‘zal eta oladi. Uyg‘unlik, go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodalik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg‘un bo‘lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimidan tortib, kundalik turmushidagi yurish-turushi, so‘zi, qalbi, qilgan ishi – hammasining go‘zal bo‘lishi ta’kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlikning tarkib topishi turmushning yanada go‘zal bo‘lishiga olib keladi.

Olimning boshqaruvga xos hulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik-psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi. «Inson o‘z ehtiroslariga xukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Beruniy boshqaruvga doir xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko‘rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e’tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Sharq va Yevropada ma’rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi tufayli, Sharqda «Shayx-ur-rais», ya’ni «Olimlar boshlig‘i», Yevropada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalardan biri o‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

«Siyosatnoma» – personalni boshqarishga doir noyob manba sanaladi. Rahbarlik va rahbar tanlash masalasining o‘ta murakkab ish ekanligi, «yetti o‘lchab, bir kesish» lozimligi haqida XI asrdan buyon kattalar uchun ta’lim-tarbiya sohasida namuna bo‘lib kelgan va Sharq tarixi, madaniyatida o‘zining «Siyosatnoma» asari bilan o‘chmas iz qoldirgan Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulkdir. Nizomulmulk kishilarni ishga tayinlayotganda nimalarga e’tibor berish lozimligi haqida fikr yuritib, amaldorlarni to‘g‘ri tanlab, ularga qo‘llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirib, ularning ijrosini o‘z vaqtida talab qilish lozimligini qayd etadi.

Ko‘rinib turibdiki, Nizomulmulk o‘z davrida davlatni boshqarishda lavozimga ega bo‘lgan vazirlar, boshqa kichikroq lavozimga ega kishilarni o‘z ishlariga jiddiy munosabatda bo‘lishini, ularni halol va pokiza ishlarni bajarishga da’vat etgan. Uning bu gaplari hozir ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmaydi. Sharqda qadimdan juda mashhur bo‘lgan «Siyosatnoma» degan asarda podshoh, hokim, amir va beklar, qozi-yu kuzzotning, zamonaviy til bilan aytganda, rahbarning bosh vazifasi «qo‘-yu qo‘zilarni bo‘rilardan muhofaza qilib, harom qo‘llarni kesib, yer yuzini yomonlik qiluvchilardan tozalash, jahonni adolat va osoyishtalik bilan obod qilishdan iborat», – deb ko‘rsatgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida aytganimizdek, liderlikniing asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida g„amxo„rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta‟rifidagi asosiy ma‟no kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo„lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin. Shaxsning liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir. Turli mehnat jamoalari o„z mas‟uliyat darajasidan kelib chiqqan holda turlicha istaklarni namoyon etadi va hatto, ba‟zida jamiyat manfaatiga to„la mos kelmaslik hollari ham kuzatiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avlaev.O., Jo‘raeva, S. (2019). ―Baxtni belgilashda adaptatsiya darajasining nisbiyligi. “Psixologiya” ilmiy jurnal, 4, 121-128.
2. Salaxutdinova M.I. Rivojlanish va yosh psixologiyasi. Oquv qo`llanma. Samarqand, SamDU, 2020. – 156 b.
3. Авлаев, О. У., & Маматкулова, З. Г. (2019). Динамика межличностного отношения компонентов сотсиалного интеллекта студентов. Наука и образование сегодня, (12 (47)).
4. Valieva, M. S., & Avlaev, O. U. (2021). The influence of educational factors on the formation of personality. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(2).
5. Avlaev, O. U. (2021). Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farklari.«. Psixologiya" Ilmiy Jurnal, 3441.
6. Hukumova (2022). Shaxsda liderlikni namoyon bo‘lishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (1), 206-213. doi: 10.24412/2181-2454-2022-1-206-213